

*Shomurodov Mansurbek Jonibek o'g'li*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

*Geografiya yo'nalishi talabasi*

*Shomurodov Mansurbek Jonibek o'g'li*

*Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни*

*Студент географического факультета*

*Shomurodov Mansurbek Jonibek o'g'li*

*Urgench State University named after Abu Rayhon Beruniy Geography student*

## **XORAZM VILOYATIDA TURIZMNING NOAN'ANAVIY TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK IMKONIYATLARI**

### **ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ НЕТРАДИЦИОННЫХ ВИДОВ ТУРИЗМА В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ**

### **GEOGRAPHICAL OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF NON- TRADITIONAL TYPES OF TOURISM IN THE KHOREZM REGION**

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada Xorazm viloyatida turizmning noan'anaviy turlarini rivojlanishning geografik imkoniyatlari atroflichcha o'rGANilgan. Hududning boy tarixi, madaniy merosi va tabiiy resurslaridan samarali foydalangan holda, ekoturizm, agroturizm, etnoturizm va arxeologik turizm kabi yo'nalishlarni rivojlanish masalalari tahlil qilingan. Maqolada viloyatning xalqaro sayyohlik salohiyatini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar va tavsiyalar ilgari surilgan.

*Kalit so'zlar:* Xorazm, noan'anaviy turizm, ekoturizm, agroturizm, etnoturizm, arxeologik turizm, turistik salohiyat, geografik imkoniyatlar.

*Аннотация:* В данной статье подробно рассмотрены географические возможности развития нетрадиционных видов туризма в Хорезмской области. Были проанализированы вопросы развития таких направлений, как экотуризм, агротуризм, этнотуризм и археологический туризм, с эффективным использованием богатой истории, культурного наследия и природных ресурсов региона. В статье представлены практические предложения и рекомендации, направленные на повышение международного туристического потенциала региона.

**Ключевые слова:** Хорезм, нетрадиционный туризм, экотуризм, агротуризм, этнотуризм, археологический туризм, туристический потенциал, географические возможности.

**Annotation:** in this article, the geographical possibilities for the development of non-traditional types of tourism in the Khorezm region are studied in detail. Issues of development of areas such as ecotourism, agrotourism, ethnotourism and archaeological tourism have been analyzed, effectively using the rich history, cultural heritage and natural resources of the region. The article put forward practical proposals and recommendations aimed at increasing the international tourist potential of the region.

**Key words:** Khwarazm, non-traditional tourism, ecotourism, agrotourism, ethnotourism, archaeological tourism, tourist potential, geographical opportunities.

Turizm dunyo mamlakatlarida milliy iqtisodiyotga salmoqli daromad keltiruvchi sohalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda turizmning ekoturizm, agroturizm, arxeologik, demografik, diniy turizm va ekstremal sharoitlar turizmi kabi noan'anaviy turlari shakllana boshladi.[1] Bugungi kunda mazkur yo‘nalishlar mutaxassislar tomonidan tez taraqqiy qilayotgan sohalar sifatida baholanmoqda. Xorazm viloyati o‘zining qadimiy tarixi, madaniy merosi va noyob tabiiy landshaftlari bilan aynan ushbu noan'anaviy turizm turlarini rivojlantirish uchun ulkan geografik imkoniyatlarga ega.

#### Xorazm viloyatida noan'anaviy turizm turlari

Ekoturizm - bugungi kunda ko‘pchilikning diqqat-e’tiborida bo‘layotgan va turizmning eng istiqbolli turlaridan biridir. Ekoturizmni rivojlantirishda turistlarga yuqori darajadagi xizmat ko‘rsatuvchi mehmonxonalar talab qilinmaydi.[5] Bu turda an'anaviy hordiq chiqarish va maishiy qulayliklar eng muhim hisoblanmaydi. Tabiatning betakror manzaralarini tomosha qilish uchun palatkalarni joylashtirish va kempinglarni o‘rnatishning o‘zi kifoya.[3] Biroq, bu soha yuqori malakali mutaxassis, ya’ni har bir guruuh uchun ekolog, turistlarning xavfsizligini ta’minlovchi xodimni talab qiladi. Bundan tashqari, ekologik turlarni taklif etuvchi firmalarning barcha harakatlari tabiatni muhofaza qilish borasidagi qonunchilik talablari asosida olib borilishi kerak.Xorazm viloyatining milliy tabiat bog’i va Amudaryo qirg‘oqlari ekologik turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega.[2]Bu yerlarda tabiatga sayohatlar, qushlarni kuzatish, flora va faunani o‘rganish kabi faoliyat turlarini tashkil etish mumkin. Shuningdek, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda ekologik jihatdan qulay va foydali sayyohlik yo‘nalishlarini ochish, sifatli xizmatlar ko‘rsatish va infratuzilmani puxta tashkil etish muhimdir.

Agroturizm - turizm sohasining eng yangi yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uni qishloq turizmi ham deb atashadi. Agroturizm 19-asrning boshlarida paydo bo‘lib, faqatgina 20-asrning ikkinchi yarmiga kelib rivojlanan boshlagan. Fransiyada 1955-yilda "Agricolure er Turisme" uyushmasi tashkil etilgan, 1965-yilda esa Italiyada qishloq xo‘jaligi va turizm uyushmasi ish boshlagan.[1] Hozirda ko‘plab Yevropa davlatlarida agroturizm uyushmalari mavjud bo‘lib, ular davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Agroturizmning rivojlanishi madaniy qadriyatlarni saqlashda, tarixni o‘rganishda, uzoq qishloq xo‘jalik hududlarining iqtisodiy rivojlanishida, mahalliy aholining xizmat ko‘rsatishdagi va ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi bandligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorazmning qishloq joylarida mavjud tarixiy yodgorliklarni ta’mirlash va turizm infratuzilmasini barpo etish orqali yangi turistik marshrutlar tashkil qilish mumkin. Rivojlangan hayot tarzidan charchagan ko‘plab turistlar agroturizmni ma’qul ko‘rishiadi, chunki u kishiga ma’lum bir muddatga tabiat qo‘ynida bo‘lib, qishloq hayotini yaqindan o‘rganish, xalq madaniyati durdonalarini o‘rganish, mahalliy urf-odatlar bilan tanishish, an’anaviy qishloq mehnatida va xalq bayramlarida ishtirok etish imkonini beradi.

Xorazm viloyati qadimiy arxeologik yodgorliklarga boy hudud bo‘lib, bu yerda uzoq o‘tmishning sir-sinoatlari yashiringan. Xorazmning ko‘plab qadimiy shaharlari, qal’alari va boshqa arxeologik ob’ektlari ushbu turizm turi uchun noyob imkoniyat yaratadi. Ushbu ob’ektlarni to‘liq pasportizatsiyadan o‘tkazish, ularni raqamlash va maqsadli foydalanishni yo‘lga qo‘yish maqsadida dasturlar yaratish lozim.[4] "Ichangal'a" davlat muzey-qo‘riqxonasidan faqat turistlarga ekskursiya xizmati sifatida foydalanishini qattiq nazorat qilish ham muhimdir. Shuningdek, "Dishon qal'a" devorlarini saqlash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Arxeologik qazishmalar va tadqiqotlar jarayonlarini turistlar uchun ochiq qilish, ular uchun maxsus sayyoqlik dasturlarini ishlab chiqish ham arxeologik turizmni yanada ommalashtirishga yordam beradi. Jumladan, "Ochiq osmon ostidagi muzey" g’oyasini ilgari surish, arxeologik lagerlarda turistlar ishtirokini ta’minlash va qazilma topilmalarining virtual muzeylarini yaratish kabi yo‘nalishlar bu sohada yangi imkoniyatlar ochadi. Bu arxeologik merosni targ‘ib qilish va turistlarning qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Xorazm viloyatida tarixiy diniy obidalar ham ko‘p. Bu yerda ko‘plab muqaddas joylar, ziyoratgohlar mavjud bo‘lib, ular diniy turizm uchun katta salohiyatga ega. Diniy turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun ushbu ob’ektlarni saqlash va ta’mirlash, shuningdek, ziyoratchilar uchun qulayliklar yaratish zarur.[3] Ushbu turizm turini targ‘ib qilishda din ulamolari va diniy jamoalar bilan hamkorlik qilish

muhim ahamiyat kasb etadi. Xorazmning Islom sivilizatsiyasidagi muhim o'rni, ko'plab allomalar va avliyolar vatani ekanligi diniy turizmni yanada kengaytirish uchun mustahkam asos bo'ladi. Ziyoratchilar uchun maxsus gidlar tayyorlash va ularga tarixiy-diniy ma'lumotlarni to'liq yetkazish, shuningdek, diniy marosimlar bilan bog'liq xizmatlarni takomillashtirish ham turistik imkoniyatni oshiradi. Bulardan tashqari turistik infratuzilmani takomillashtirish masalasi ham mavjud. Xorazm vohasining turistik infratuzilmasini yanada takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- Xorazm vohasida joylashgan barcha tarixiy me'moriy ob'ektlarni to'liq pasportizatsiyadan o'tkazish, ularni raqamlash va ulardan maqsadli foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida dasturlar yaratish.
- Turistik yo'nalishlarning yangi turlarini ishlab chiqish: ovchilik va baliqchilik turizmi.
- Xorazm viloyatida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda hamda Amudaryo qirg'oqlari hududlarida yangi turistik yo'nalishlarini ochish bo'yicha ekologik turizmni yo'lga qo'yish.
- Qishloq joylarida mavjud tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash va turizm infratuzilmasini barpo etib, yangi turistik marshrutlarni tashkil etish.
- Transport infratuzilmasini, aviareyslarni turistik mavsumlarda ko'paytirish va mamlakatimizning turistik shaharlari yo'nalishlarida tezyurar poyezdlar tashkil qilish.
- Turizm sohasida malakali kadrlarni, jumladan: turizm va mehmonxona xo'jaligi, restoran menejerlari, turoperatorlar, gid-ekskursovodlarni ko'paytirish va turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak.

Xorazm viloyatida turizmning noan'anaviy turlarini rivojlantirish, sayyoohlarni uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish, xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish va mavjud imkoniyatlardan foydalanib mintaqada turizmni yuqori darajaga olib chiqish dolzARB masalalardan biri hisoblanadi. Xorazmning boy geografik resurslari, noyob tabiiy landshaftlari va qadimiy madaniy-tarixiy merosi viloyatni nafaqat an'anaviy, balki ekoturizm, agroturizm, arxeologik turizm va diniy turizm kabi noan'anaviy turizm turlari uchun ham jozibador maskanga aylantirishi mumkin. Noan'anaviy turizm turlarini rivojlantirish, ayniqsa, viloyatning chekka hududlarida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, mahalliy aholi bandligini oshirish va ularning turmush farovonligini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bu turizm turlari mintaqaning madaniy qadriyatlarini saqlash, tarixni o'rganish va ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga ham hissa qo'shadi. Xorazm viloyati turizm salohiyatini yuqori darajaga olib chiqish uchun tizimli yondashuv, davlat va xususiy

sektor hamkorligi, shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Milliy ensiklopedasi. 1-jild. T.: 2000. 435 bet.
2. N. E. Ibobullaev O'zbekistonning turistik resurslari (ma'ruzalar matni). Samarqand. 2008 y.
3. R. Davlatov. "ISHONCH" gazetasi. 2019yil 27 avgust. №105. 4 bet.
4. Matchanova A.E, Hayitova Q.B “Xorazm viloyatida turizmning noan'anaviy turlarini rivojlantirish imkoniyatlari”. Science and Education Scientific Journal, 2020, 1(2), 133-136.
5. Matchanova A.E, Shomurodov M.J “ Xorazm milliy tabiat bog'inining ekoturizmni rivojlantirishdagi ahamiyati” "Экономика и социум" №12(127) 2024